

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

## MULTIMEDIA SHAKLIDAGI ELEKTRON DARSLIKLARNING SIFATI VA ASOSIY KO'RSATKICHLARI

**Bunyodjon A'zamov**  
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Multimedia shaklidagi elektron darsliklarning afzallik, sifat darajasi, undan foydalanish jihatlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Multimedia, electron darsliklar, emotsional xotira, intraktivlik.

Multimedia shaklidagi elektron darsliklar mustaqil o'rghanish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni, shu bilan birga berilgan mavzu bo'yicha olingan bilimlarni nazorat qilish uchun amaliy va test masalalarini o'z ichiga olishi kerak. Bundan tashqari multimedia shaklidagi elektron darsliklar oddiy dasrliklardan farqli ravishda shunday ishlab chiqilishi kerakki, u quyidagilarni ta'minlasin:

- kurs mazmunini batafsilroq (to'la) strukturalashtirish;
- interaktivlik – foydalanuvchining faoliyatiga bog'liq ravishda ma'lumotlarning ko'rsatilishini o'zgartirish imkoniyati, shuningdek, o'rghanish yo'nalishini o'zgartirish imkoniyati;
- kursning tushunchalarga oid qismida va nazariy ma'lumotlarning gipermatnli strukturasi (ta'riflarga havolalar);
- kuchli ko'rgazmali ma'lumotlardan foydalanish – turli xil rasmlar va tasvirlar, animatsiyalar va boshqa multimedia vositalari;
- bilimlarni mustahkamlash, olingan bilimlarni nazorat qilish va baholash uchun multimedia shaklidagi elektron darslikda o'rnatilgan amaliy va nazorat vositalaridan foydalanish;
- turli xil elektron matnlar va grafik ta'lim materiallariga havolalar (giperhavolalar) tizimining mavjudligi.

Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarni ta'minlash ushun multimedia shaklidagi elektron darsliklarni yaratuvchilar multimedia shaklidagi elektron darsliklarga qo'yiladigan talablardan tashqari o'zining kurslari uchun mundarijalarni loyihalash texnologiyasi bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

Multimedia shaklidagi elektron darsliklarni ishlab chiqishdagi eng asosiy masala - bu multimediali elektron darsliklarning sifati masalasıdir. Sifatli ishlab chiqilgan multimediali elektron darsliklar turli xil didaktik materiallar va ta'lim resurslarini o'z ichiga oladi. Bunday multimedia shaklidagi elektron darsliklar birinchi

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

o'rinda fanni mustaqil o'rganuvchi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lishi va ma'lumotlarni yetkazish usullari bilab farq qilishi kerak.

Psixolog va uslubchilarining fikrlariga ko'ra mustaqil o'rganish uchun mo'ljallangan multimedia shaklidagi elektron darsliklarda sifatli tayyorlangan didaktik material o'rganuvchilarda mustaqil o'rganish uchun qiziqish, motivatsiya uyg'otishiga sabab axborotlarning kompyuter grafikasi va multimedia elementlari bilan elektron shaklda berilishi bilan birga bunday multimediali elektron darsliklar bilan ishlaganda o'rganuvchining psixik faoliyati faollashadi.

Multimedia shaklidagi elektron darsliklar ta'lim oluvchilarining mustaqil ishlashlari uchun zarur bo'lib u quyidagilarni ta'minlaydi:

O'rganilayotgan materialni tushunishni yengillashtiradi. Chunki multimediali elektron darsliklar ma'lumotlarni yetkazib berishning turli shakllari: induktiv yondashuv, ovozli va emotsional xotira va h.k. larga asoslangan.

Ta'lim oluvchining ehtiyojlariga, tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga moslashish imkoniga ega

Murakkab hisoblashlar va shakl almashtirishlardan ozod etib fanning mazmuniga e'tibor qaratishga, ko'p miqdordagi misollarni qarashga va yechishga imkon beradi

Ta'lim olishning barcha bosqichlarida o'z-o'zini tekshirishning keng imkoniyatlarini ta'minlaydi;

Ishni tartibli va chiroyli tarzda bezab o'qituvchiga fayl yoki chop etilgan holda taqdim etish imkonini beradi

Chegaralanmagan miqdorda tushuntirishlar, takrorlashlar va h.k. larni beradigan cheksiz sabr-toqatli ustoz vazifasini bajaradi

Multimedia shaklidagi elektron darsliklar amaliy mashg'ulotlarda foydali hisoblanadi chunki u:

Ko'p miqdordagi masalalarni yechishda kompyuterdan foydalanish imkonini beradi, olingen natijalarni tahlil qilish va ularning grafik interpretasiysi uchun ketadigan vaqtdan ozod etadi

O'qituvchiga mashg'ulotni kompyuterda mustaqil ish shaklida olib borish imkonini beradi va o'qituvchining faqat rahbar va konsultant vazifasida bo'lishini ta'minlaydi

O'qituvchiga kompyuter yordamida ta'lim oluvchilarining bilimlarini tez va samarali nazorat qilish, nazorat materiallarinin mazmuni va murakkablik darajasini berish imkonini beradi

Multimedia shaklidagi elektron darsliklar o'qituvchi uchun qulay chunki u:

## Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Ma’ruza va amaliyot darslariga o‘zi xoxlagan materiallarni kiritish, auditoriya mashg’lulotlaridan tashqari talabalarning multimedia shaklidagi elektron darsliklar bilan mustaqil ishlashlarini ta’minalash imkonini beradi;

Uy vazifalari, topshiriqlar va nazoratlarni tekshirish bilan bog’liq ishlardan ozod etadi

Auditoriyada ko‘riladigan va uyga berladigan misol va masalalarning mazmuni va miqdori munosabatlarini optimallashtirish imkonini beradi

Uy vazifalari va nazoratlarda talabalar bilan individual ishlashga imkon beradi

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar Strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son Farmoni. – O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 5-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.

2. Bunyodjon A’zamov. CULTURE OF USING MULTIMEDIA INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL SYSTEM  
<https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/3004>

3. Urinboevna, U. Z., Burkhanovich, D. B., & Ismailovna, Y. F. (2022). New technologies for the development of strength qualities Youth. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(11), 220-224.

4. Akramjonovich, Y. I., & Ismailovna, Y. F. (2023). Development and Improvement of The Motor Qualities of Volleyball Players Based on The Educational and Training Process. Journal of Advanced Zoology, 44(S6), 1499-1503.

5. Ilyosovich, M. S. (2023). Improving physical education of students with fatigued health. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(10), 32-35.

6. G’ayratovich, S. S., & Akramjonovich, Y. I. (2023). Development principles of young sportsmen’s strength by updated technologies. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(12), 32-34.

7. Dexqonov B.B. (2022). Spiritual Training of Young Athletes. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(04), 144-146.

8. Abdukhamedovich, Moydinov Iqboljon. "IMPROVING THE FUNCTIONAL SKILLS OF THE BELT WRESTLER." Open Access Repository 9.9 (2023): 109-114.